# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024

№ 5




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Google Scholar

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 312 sahifa.*
*E’lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., TAQU katta o‘qituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi



Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning oʻziga xos xususiyatlari va tamoyillari ..... 10
**Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon Gʻaybulla oʻgʻli**

Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari ..... 16
**Akbarov Bekmurod Miryakubovich**

Qoraqalpogʻiston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi ..... 22
**Norchayev Asatullo Norboʻtayevich**

Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy ..... 28
**Tulagan Tukhtaraliev, Gʻaniev Muhammadjon Xalilovich**

Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish ..... 31
**Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi**

Oʻzbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida ..... 34
**Uraimjonov Azizbek Raxmonjon oʻgʻli**

Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (Oʻzbekiston misolida) ..... 40
**Egamov Sevinchbek Maxsud oʻgʻli**

Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export ..... 46
**Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna**

Oʻzbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari ..... 49
**Hojiyev Tal'at Toshpoʻlatovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yoʻllari ..... 54
**Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi ..... 57
**Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich**

Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari ..... 61
**Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdigʻani qizi**

Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari ..... 68
**Uralov Olimjon Mahammadjonovich**

Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi koʻrsatkichlari dinamikasini tahlil qilish ..... 72
**Mirzatov Baxtiyor Toxirovich**

Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar ..... 77
**A. I. Raxmatov**

Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана ..... 83
**Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи**

Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili ..... 88
**Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin oʻgʻli**

Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili ..... 94
**R. I. Pardayev**

Katta hajmga ega boʻlgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri ..... 101
**Raxmanova Xuriniso Egamovna**

Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati ..... 104
**Rajjaboyeva Dildora Zakirovna**

Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash ..... 110
**Nilufar Sharipova**

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati ..... 114
**Karimov Shamsiddin Akram oʻgʻli**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari ..... 122
**Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi**

Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari ..... 127
**Davronbek Sharibjonovich Raximov**

Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili ..... 133
**Aminov Farrux Farxadovich**

Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 138
**G. J. Jumayeva**

Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari ..... 141
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliini boshqarishdagi muammolar ..... 146
**Nematova Shaxlo Egamberdiyevna**

Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari ..... 149
**Xakimov Zohid Norbo'tayevich**

Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish ..... 158
**Zoirov O'lmas Erkin o'g'li**

Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash ..... 164
**Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna**

Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана ..... 168
**Иноятова Камола Фуркатовна**

Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni ..... 172
**X. X. Ikramov**

Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 176
**Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li**

Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida) ..... 182
**Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov**

Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli ..... 189
**Rabimqulov Sherzod Murtozayevich**

Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari ..... 193
**Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich**

Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi ..... 198
**Boltaboev Murodbek Aybekovich**

Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi ..... 203
**X. I. Boyev**

Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi ..... 207
**Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi**

Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak ..... 216
**Farhod Bagibekovich Xalimbetov**

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan
soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili ..... 220
**Valiyeva Sayyora Xushbaqovna**

Автомобильная промышленности развитых стран: становление,
развитие, пути совершенствования ..... 227
**Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи**

Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность ..... 232
**Шермаматова Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли**

ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности ..... 238
**Фаттахова Муниса Абдухамитовна**

Меры по привлечению прямых иностранных инвестиций в национальные экономики ..... 243
**Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи**

Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг ..... 248
**Розоков Мухаммадазиз Мансурович**

Factoring Operations in Banks ..... 253
**Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna**

Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish ..... 257
**Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich**

O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati ..... 264
**Oybek Elmuratov**

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish ..... 268
**Uzakova Umida Ruzievna**

Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy ..... 274
**Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich**

O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomilashtirish yo'llari ..... 278
**Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna**

Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari ..... 284
**Norqobilov Nusrat Norsaitovich**

Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi ..... 288
**Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna**

Mahalliy budjetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi ..... 295
**S. Y. Ismoilova**

Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish ..... 300
**Qurbonova Firuza Solexovna**

Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi ..... 306
**AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich**

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

# MINTAQALAR IQTISODIYOTINING BARQAROR O'SISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH MEZONLARI VA ULARNI HISOBLASH USULLARI

**Norqobilov Nusrat Norsaitovich**
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari o'rganilgan va investitsiya loyihalarini baholash, tanlash va amalga oshirishda, investitsiya imkoniyatlarini tahlil qilingan hamda tegishli xulosalar keltirilgan.

Abstract: In the article, the criteria for the effective use of investments in ensuring the sustainable growth of the economy of the regions and their calculation methods were studied, and in the evaluation, selection and implementation of investment projects, investment opportunities were analyzed and relevant conclusions were presented.

Аннотация: В статье изучены критерии эффективного использования инвестиций в обеспечении устойчивого роста экономики регионов и методы их расчета, а при оценке, выборе и реализации инвестиционных проектов проанализированы инвестиционные возможности и сделаны соответствующие выводы. представлено.

## KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotini yangilash sharoitida investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun investitsiya qarorlarini qabul qilishning barcha bosqichlarida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, tanlab olish va amalga oshirishning muntazam, tugal bir tizimini shakllantirishga to'g'ri keladi. Bunda amalda sinalgan tajribalarga tayanib, investitsiya loyihalarini baholash va tahlil qilish jahon mamlakatlarida qabul qilingan standart uslubga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Investitsiya loyihalar samaradorligini tahlil qilish va baholashda pul oqimlarini diskontlash usulidan foydalanish kerak. Bu usul jahon amaliyotida qo'llaniladigan sof diskontlangan daromad, ichki daromadlilik normasi, qoplash muddati va boshqa ko'rsatkichlar hisob-kitoblarini va ularni hisoblash usullarini nazarda tutadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda rivojlantirishda ichki va tashqi investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash bo'yicha bir qancha olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, professor N.G'.Karimovning mamlakatlar hududida yangi korxona yaratish, mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, eng yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida [4] hamda Sh.I.Mustafaqulovning ilmiy ishlarida mintaqalardagi tabiiy resurslar zahirasi, investorlar uchun yaratilgan imtiyozlar, infratuzilma holati, hududlarning investitsion reytingi xorijiy investitsiyalar oqimi hamda ichki investitsiyalarning faollashuviga ta'sir ko'rsatishi, bunda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi investitsion salohiyat va iqtisodiy salohiyat ko'lamining yuzaga kelishini ta'minlanishi yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilganligini ta'kidlash mumkin [5]. Shuningdek, tadqiqotchi B.B.Valiyev tomonidan O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi, [6] S.Sh.Maxmudov mintaqa iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar samaradorligini oshirish, yoki [7] B.K.To'xliyev investitsiyalar va ulardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari masalalari tadqiq etilganligini keltirish mumkin [8].

Biroq mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari va bu borada ilg‘or xorij tajribalaridan ijodiy foydalanish imkoniyatlari bilan bog‘liq masalalar alohida mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Ushbu ilmiy muammoni iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi mazkur maqolaning mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston iqtisodiyotini yangilash sharoitida investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun investitsiya qarorlarini qabul qilishning barcha bosqichlarida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, tanlab olish va amalga oshirishning muntazam, tugal bir tizimini shakllantirishga to‘g‘ri keladi. Bunda amalda sinalgan tajribalarga tayanib, investitsiya loyihalarini baholash va tahlil qilish jahon mamlakatlarida qabul qilingan standart uslubga asoslanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ilg‘or xorij tajribasidan ham ma’lumki, investitsiya loyihalarini baholash, tanlash va amalga oshirishda, investitsiya imkoniyatlarini tahlil qilishga, jalb qilinadigan resurslar qiymatini baholashga e’tibor qaratish kerak.

Loyihalar samaradorligini tahlil qilish va baholashda pul oqimlarini diskontlash usulidan foydalanish kerak. Bu usul jahon amaliyotida qo‘llaniladigan sof diskontlangan daromad, ichki daromadlilik normasi, qoplash muddati va boshqa ko‘rsatkichlar hisob-kitoblarini va ularni hisoblash usullarini nazarda tutadi.

Ichki manbalar va chet ellik sheriklarning mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda jalb qilish narxlarini belgilash asosida resurslar bazasini baholashni o‘tkazish zarur. Bunda ayniqsa, loyihalar bo‘yicha risklarni tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Risklarni tahlil qilishda jahon amaliyotida qo‘llaniladigan risklarni pasaytirish uslubidan foydalanish kerak.

Investitsiya kapitalining aniq va noaniq risklar bilan chambarchas bog‘liqligi ularni minimallashtirish usullarini hisobga olish va izlash zaruratini keltirib chiqaradi. Jahon miqyosida investitsiya kapitalining harakatchanligi, qaltisligi, kamyobligi uning soliq va valyuta siyosatiga bog‘liq holda harakatini belgilab beradi. Investitsiya kapitaliga bo‘lgan yuqori talab jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantirishda asosiy o‘rinda turadigan xarid bozorlari orqali ta’minlanadi. Investitsiya kapitalining mamlakatlararo ko‘chishlarida ularning qiymatlarini aniqlash qiyinlashadi.

Chunki moliyalashtirishda turli iqtisodiy institutlar va hamkorlardan jalb qilinadigan turli resurslar ishtirok etadi. Investitsiyalarni moliyalashtirishda turli manbalarning ishtiroki, ularni ta’minlashning davlat va bozor mexanizmlari mavjudligi, ularning har birining qiymatini alohida-alohida baholashni va narxlarini aniqlashni taqozo etadi.

Kapitalni tanlanish narxi yoki undan foydalanishning muqobil qiymatidan iborat bo‘lgan kapital qiymatini baholash ularning faoliyatining boshqa ko‘rinishlariga qo‘yishni istisno etadi. Shu sababli mablag‘larni qo‘yish faqat riski bir xil bo‘lgan muqobil loyihalarga qaraganda ko‘proq daromad keltiradigan hollardagina to‘g‘ri va o‘rinli hisoblanadi. Demak, kapital qiymati kapital egalarini qondirish uchun zarur bo‘lgan foydadan iborat, uning sof joriy qiymati esa investorlar tomonidan xuddi shunday foydani qo‘yilgan mablag‘lar bilan birga qarz oluvchiga qondirishga rozi bo‘lgan pul summasidan iborat. Investitsiyalanadigan kapitalning umumiy qiymati investorlarning o‘z investitsiyalaridan kelajakdagi jami pul tushumlarining diskontlangan joriy qiymati bilan aniqlanadi.

Real hayotda mablag‘larni jalb qilishni oqilona tashkil etish zarurati tufayli kapital manbalarining maqbul proporsiyalari doimo o‘zgarib turadi. Investitsiya kapitali qiymatini baholash joriy qiymatini diskontlash usulidan foydalanishga asoslanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda qarz mablag‘larini, chet el investitsiyalarini va boshqalarni jalb etishga to‘g‘ri keladi, lekin milliy valyuta kurslari beqaror bo‘lgan sharoitlarda jalb qilinadigan investitsiya resurslari qiymatini baholashda katta qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bunday hol bo‘lajak investitsiya imkoniyatlarini va ularni moliyalashtirish uchun mablag‘larni topish imkoniyatlarini puxta o‘ylab ko‘rishni taqozo etadi.

Investitsiya qarorlari, jami investitsiya kapitali tuzilmasini hisobga olgan holda, ilmiy asoslangan diskontlash koeffitsiyentlari va ko‘rsatkichlar tizimi natijasi asosida, investitsiya loyihasining barcha ishtirokchilari manfaatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilinishi lozim.

Mintaqalarda yirik investitsiyalarni baholashda, xorijiy sheriklar qo‘shma korxonalar, bevosita chet el investitsiyalari va boshqa shakllarda qatnashadigan sheriklar dasturlarida investitsiya kapitali qiymatini baholashda jami diskontlangan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim. Bu ko‘rsatkichlarni hisoblash nafaqat xususiy

qarorlarni aniqlash asosida, balki umumiqtisodiy samaradorlikni xarajatlar va natijalarni tahlil qilish asosida aniqlash bilan o‘tkazilishi lozim.

Jahon tajribasidan ko‘rsatishicha, nisbatan iqtisodiy rivojlanishi past bo‘lgan mintaqalarga investitsiyalarni jalb etish yo‘llarini amalga oshirish orqali investitsiya siyosati yurgiziladi.

Hozirgi kunda, xorijiy investorlar davlat yoki mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt bilan hamkorlik qilishdan oldin, albatta mazkur mintaqaning investitsion salohiyati risklar darajasini baholashga intiladi. Negaki sarflayotgan investitsiyasini baholash investor faolligini oshiradi. Lekin, dunyodagi har bir mintaqaning o‘ziga xos aniq shart-sharoitlari bir-biridan farq qiladi, u holda, har bir mintaqaning investitsiya salohiyatini xalqaro metodlar orqali baholash qiyin.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish sharoitda investitsiya salohiyatidan to‘g‘ri va oqilona foydalanish investitsiya samaradorligini ta’minlaydi. Bizga ma’lumki, mintaqalarga investitsiyalar jumladan, xorijiy investitsiyalar jalb etish avvalo mintaqalarning ijtimoiy-demografik, tabiiy-iqtisodiy, ekologik, ishlab chiqarish va boshqa sharoitlariga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”1, 2017-yil 19-iyunidagi PF-5087-sonli “Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni2, 2017-yil 8-avgust PQ-3182 “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori3, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu sohada dastur bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyot xususiyatlaridan kelib chiqib, mavjud statistik ko‘rsatkichlar asosida ichki va xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholashning sifat ko‘rsatkichlarini hisoblash formulalarini tizimlashtirilgan holda ifodalash ma’lumotlar aniqligiga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval: Investitsiyalar samaradorligini baholashning sifat ko‘rsatkichlari[4]

| Formula muallif tomoniadn xorijiy investitsiyalar uchun taklif qilingan modifikatsiyalar shakli | Formulalarning xalqaro amaliyotda foydalaniladigan mavjud shakllari |
|---|---|
| **1. Kapital qaytimi** | |
| $$XKQ = \frac{YaHM(t) - YaHM(t-1)}{XI(t) - XI(t-1)}$$ Bunda XKQ-xorijiy kapital qaytimi, YAHM(t)- YAHM(t-1)-colishtirma narxlarda t – yildagi yalpi ichki mahsulot hajmi, XI (t), XI (t-1),-solishtirma narxlarda t-yilga nisbatan xorijiy investitsiyalar hajmi (3 yillik o‘rtacha hajm tavsiya qilinadi) | $$KQ = \frac{\Delta MD}{\Delta K} \text{ yoki } KQ = \frac{\Delta MD}{\Delta F}$$ bunda KQ – kapital qaytimi; MD – milliy daromad o‘sishining solishtirma narxlarda hajmi; K – kapital qo‘yilmalar hajmi,F-asosiy fondlar o‘zgarishi hajmi |
| **2. Investitsiya multiplikatori** | |
| $$XK(mul.) = \frac{YaHM(t) - YaHM(t-5)}{(XI(t) - XI(t-5))}$$ Bunda XI (mul) –xorijiy investitsiyalar multiplikatori, -solishtirma narxlarda t- yildagi va undan kamida 5 yil avvalgi yildagi yalpi hududiy mahsulot hajmi, solishtirma narxlarda t- yildagi va undan kamida 5 yil avvalgi yildagi xorijiy investitsiyalar hajmi. | $$IM = \frac{\Delta MD}{\Delta I}$$ bunda IM - investitsiya multiplikatori, -milliy daromad o‘zgarishi, investitsiyalarning o‘zgarishi o‘zgarishi |
| **3. Jalb qilingan salohiyatdan foydalana olish indeksi (Inward FDI performance index)** | |
| $$I(sf) = \frac{TTXI(i)/TTXI}{YaIM(i)/YaIM(j)}$$ bunda I – mamlakatda TTXI ni jalb qilishda iqtisodiy salohiyatdan foydalana olish indeksi, TTXI (i)-i mamlakatga kiruvchi TTXI hajmi, TTXI (j) – jahondagi jalb qiluvchi TTXI umumiy hajmi, TTXI (i)-i mamlakatning yalpi ichki mahsulot hajmi, YAIM (j) – jahondagi yalpi ichki mahsulot umumiy hajmini ifodalaydi. | $$I(sf) = \frac{TTXI(j.ul.)}{YaIM(j.ul.)} + \frac{TTXI(j.ul.)}{B(j.ul.)} + \frac{TTXI(j.ul.)}{E(j.ul.)} / 3$$ Bunda I-jalb qilishda salohiyatdan foydalana olish indeksi, TTXI (j.ul)-to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bo‘yicha jahonda ulush, YAIM (j.ul)-yalpi ichki mahsulot bo‘yicha jahondagi ulushi, B (j.ul)-bandlik bo‘yicha jahondagi ulushi, E (j.ul)-eksport bo‘yicha jahondagi ulushi |

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.06.2017-yildagi 5087-sonli Farmoni.
3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.08.2017-yildagi 3182-sonli qarori.
4 A.V.Vaxobov, Sh.X.Xajibakiyev. Xorijiy investitsiyalar. –T. “Moliya”, 2010-yil, 156-bet.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida aytish mumkinki, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalarning foydalanish samaradorligini baholashda bir nechta umumiy ko‘rsatkich bilan cheklanib qolmasdan, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar xususiyatlarini ham o‘zida mujassamlashtirgan, korxona va investitsiya loyihasi darajasidagi omillarni ham o‘z ichiga olgan keng ko‘lamdagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan, investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishiga ta’sirini hisoblash bilan birgalikda hudud va iqtisodiy tarmoqlardagi kapital sig‘imini aniqlash, mavjud iqtisodiy imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalana olish darajasini baholash, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tahlil qilish, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, tanlash va amalga oshirish sifatini tekshirish bilan bog‘liq keng ko‘lamli chora-tadbirlar orqaligina mamlakatimizdagi ichki va xorijiy investitsiyalar samaradorligini to‘laqonli baholash mumkin.

Tahlillarimiz, hududlarning rivojlanishi ko‘p jihatdan investitsiyalardan samarali foydalanish salmog‘i bilan bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

O‘zbekiston mintaqalari va hududlarini muvozanatli va mutanosib rivojlantirishda hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini baholash hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga investitsiyalar kiritish va uni optimal joylashtirish yechimlarini topishni e’tiborga olish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mintaqalar iqtisodiyotining rivojlantirishda va uning raqobatbardoshligini ta’minlashda qulay investitsiyalash sharoitiga ega. Biroq bu imkoniyatlar mintaqaning sanoqli hududlarida joylashgan.

Shu sababdan iqtisodiyotni yuksalatirish va uning hududiy muvozanatligini ta’minlashda mintaqaning o‘ziga xos investitsiya salohiyati hamda imkoniyatlari hisobga olgan holda investitsiyalarni keng jalb etish taqozo etiladi.

Bu o‘rinda har bir hudud iqtisodiyotni ixtisoslashtirish va uni rivojlantirida ularga xos bo‘lgan strategik yo‘nalishlarning ishlab chiqilganligi ta’kidlab o‘tish lozim. Shu bilan birga, mintaqalar iqtisodiyotiga to‘g‘ridan–to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo‘nalishlarini aniqlab olish uchun tarmoqlar hududlar xususiyatidan hisobga olgan holda klasterlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Binobarin, mintaqalarda (tabiiy, yer , suv, mehnat ) resurslardan samarali foydalanilgan holda innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish, ixtisoslashgan tarmoqlarga investitsiyalarni diversifikatsiyalash va uni o‘zaro kooperatsiya aloqalari asosida muvozanatli rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan ham ma’lumki, xorijiy investitsiyalar xalqaro iqtisodiy munosabatlarga integratsiyalashuv va jahon bozoriga chiqishga imkon beradi. Ushbudan kelib chiqib, mamlakatimiz va uning mintaqalari iqtisodiyotini rivojlantirishda, xorijiy investitsiyalardan maqsadli foydalanish bo‘yicha dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-iyunidagi PF-5087-sonli “Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni. https://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgust PQ-3182 “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori. https://lex.uz
4. A.V.Vaxobov, Sh.X.Xajibakiyev. Xorijiy investitsiyalar T.”Moliya” 2010-yil 156-bet.
5. N.G‘.Karimov Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari: monografiya. –T.:2010 y, Fan va texnologiya, 240 b.
6. Mustafaqulov Sh. I. “O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishi avtorefarat. Toshkent. 2017.
7. Valiyev B. B. O‘zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi” Iqtisodiy fanlari doktori (Doktor of science) dissertatsiyasi avtoreferati, 2021-y.
8. Maxmudov S. Sh. Mintaqa iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlar samaradorligini oshirish (Qashqadaryo viloyati misolida) Iqtisodiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 2022-y.
9. To‘xliyev B. K. Investitsiyalar va ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalari; Monografiya. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”. –T-2021. 224.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 5**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.